



## REFLECTION OF EASTERN ARTISTIC AND PHILOSOPHICAL VIEWS IN FARID EDGU'S MINIMAL STORIES

Shaxnoza Karimova

Doctoral student of Tashkent State University of Oriental Studies

(Tashkent, Uzbekistan)

**Abstract:** Since the 1980s, modern Turkish storytelling has experienced transformations in both its structure and subject matter. This era is notable in Turkish storytelling for its stories that possess a distinctive artistic and philosophical essence. The article examines the concise narratives written by the renowned author Farid Edgu, who is recognized as a trailblazer in Turkish writing. The writer pioneered the introduction of the minimal story form into Turkish prose, skillfully incorporating profound Eastern philosophy into his concise narratives. Additionally, he broadened the educational horizons of Turkish literature. These short stories depict the historical background, cultural values, and profound spiritual heritage of the Turkish people, while also including elements from old world literature through intertextuality and leitmotifs. The foundation of his creative approach is rooted in clarity, and his exceptional command of precision in writing is evident through the use of symbols. The paper examines the use of symbols in mirroring philosophical perspectives in the author's concise narratives

**Key words:** modern Turkish literature, Farid Edgu, minimal stories, symbols, artistic and philosophical views, postmodernism, leitmotif.

## FARID EDGUNING MINIMAL HIKOYALARIDA SHARQ BADIYIY- FALSAFIY QARASHLARINING AKSI

**Shaxnoza Karimova**

**Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti tayanch doktoranti  
(Toshkent, Ozbekiston)**

**Annotatsiya:** Ma'lumki, XX asrning 80-yillaridan boshlab zamonaviy turk hikoyachiligi shakl va mazmun jihatdan o'zgarishlarga yuz tutgan. Ushbu davr turk nasrida o'ziga xos badiiy-falsafiy mazmunga ega hikoyalar bilan iz qoldiradi. Maqolada turk adabiyotining novator ijodkorlaridan biri mashhur adib Farid Edgu qalamiga mansub minimal hikoyalar tahlilga tortilgan. Adib minimal hikoya janrini ilk bor turk nasriga olib kirgan bo'lib, mo'jaz hajmli hikoyalarida ulkan sharqona falsafani aks ettiradi va bu bilan birga turk adabiyotining ma'rifiy qamrov doirasini kengaytiradi. Hajman kichik hikoyalarda turk xalqining o'tmishi, qadriyatlar va boy manaviy tarihi bilan bir qatorda dunyo adabiyotining qadim durdonalari intermatn va leytmotiv vazifasini o'taydi. Ijod falsafasi lo'ndalikka asoslangan yozuvchi ijodida nuktadonlik mahorati esa ramziylikda o'z aksini topadi. Maqola doirasida adib minimal hikoyalarida falsafiy qarashlarni aks ettirishda ramzlarning o'rni o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** zamonaviy turk adabiyoti, Farid Edgu, minimal hikoyalar, ramz, badiiy-falsafiy qarashlar, postmodernizm, leytmotiv.

**Аннотация:** С 1980-х годов XX века современное турецкое повествование претерпело изменения в форме и содержании. Этот период оставил уникальный след в турецком повествовании благодаря особенностям художественного и философского содержания. В данной статье рассматриваются миниатюрные рассказы известного писателя Фариды Эдгу, одного из новаторов турецкой прозы. Писатель впервые ввел жанр миниатюрного рассказа в турецкую литературу, отражая в них глубокую восточную философию и одновременно расширяя образовательный охват

турецкой литературы. В этих коротких рассказах представлены прошлое, ценности и богатая духовная история турецкого народа, наряду с древними шедеврами мировой литературы через интертекстуальность и лейтмотивы. Философия творчества писателя основана на ясности, а его мастерство точности в письме находит отражение в символизме. Статья исследует роль символов в отражении философских взглядов в миниатюрных рассказах писателя.

**Ключевые слова:** современная турецкая литература, Фарид Эдгу, миниатюрные рассказы, символы, художественно-философские взгляды, постмодернизм, лейтмотив.

**Kirish.** Insoniyatning yangi–globallashuv va texnika taraqqiyotiga asoslangan davrida insoniyat qadriyatlarini o‘ziga xos ko‘rinish olmoqda. O‘z e‘tiborini har doimgidan chuqurroq ma‘naviy yuksalish, ruhiy xotirjamlik va ongli hayot kechirish tarziga yo‘naltirgan jamiyat hayotida san‘at va adabiyotga bo‘lgan ehtiyoji tobora ortib bormoqda. Bu zaruriyat bugungi adabiy jarayonda keng ko‘lamli o‘zgarishlar amalga oshirilishiga zamin yaratmoqda.

Zamonaviy turk adabiyoti shakllanish jarayoni bugungi kunda turk milliy qadriyatlarini badiiy jarayonga integratsiya qilish barobarida turk adabiy tilining badiiy adabiyotdagi o‘rnini mustahkamlashga asoslanadi. Jarayon pirovardida zamonaviy turk milliy adabiyotida turk xalqining milliy falsafiy qarashlari, manaviy boyligi zamonaviy adabiyotda in‘ikos etmoqda.

Bugungi kun turk adabiyoti shakllanishi va rivojlanishida taraqqiyparvar yozuvchi, publistis va rassom Farid Edgu ijodining ahamiyati katta. Farid Edgu XX asr ikkinchi yarmi va XXI asr turk adabiyoti yirik namoyandasi, turk hikoyanavisligining novator ijodkorlaridan biri hisoblanadi. Adib uzun yillik ijodi davomida turk hikoyachiligida zamonaviy turk jamiyatining dolzarb ijtimoiy-maishiy va ruhiy-psixologik muammolarini keng yoritdi. Ijod falsafasi lo‘ndalik,

aniqlik va kam hajmlilikka asoslangan yozuvchi, turk adabiyotida minimal hikoya janriga asos soladi. Adib uzun yillik ijodi davomida “Qochqinlar” (“Kaçkınlr”, 1959), “Ov” (“Av”, 1968), “Bir kemada” (“Bir Gemide”, 1982), “Min bir bo‘g‘ın” (“Bin Bir Hece”, 1991), “Do notasi” (“Do sesi”, 2001), “Borar joy” (“Yolun Gittiği Yer”, 2021) kabi o‘ndan ortiq hikoyalar to‘plamini e‘lon qiladi. To‘plam hikoyalarda asosan ekzistensial, islomiy-falsafiy, sharqona an‘analar o‘ziga xos uslubda hajman kichik minimal hikoyalarda jonlanadi.

**Asosiy qism.** Dunyo adabiyotida “drabl”, “miniyatura”, “short fiction” nomlanuvchi minimal hikoyalar hajman o‘ta siqiq (100 so‘zgacha) bo‘lishiga qaramay, chuqur falsafiy mazmunga ega bo‘ladilar. [8, s.10] Minimal hikoyalarda yagona ijodiy masalaga qaratiladi, syujet bir voqelik atrofida shakllanadi. “Yozuvchini mavzu ko‘lami jihatidan chegaralovchi minimal hikoyalar uslub va tasvirda keng imkoniyatlar yaratib beradi” [10, s.45]. Minimal hikoyalar modern dunyoda vaqt muammosi bilan yakkama-yakka qolgan, pand-nasihatdan yiroq bo‘lgan zamonaviy inson hayotining hayratga soluvchi qisqa parchasi bo‘lib, zamonaviy axborot tig‘izligidan kelib chiqqan holda kitobxonni o‘ziga qaratuvchi, uning ongida yangidan-yangi ma‘nolarga yo‘l ochuvchi qisqa va ochiq matn shakliga ega bo‘ladilar. O‘ziga xos ritm va ohangi sabab she‘riyatni eslatuvchi minimal hikoyalarda, chuqur falsafiy ma‘no majoziy ramzlar vositasi orqali yetkaziladi. Minimal hikoyalarning xususiyatlari haqida gap borar ekan, amerikalik olim E. Allanning “Insho falsafasi” nomli asaridagi minimal hikoyalar haqidagi tasnifi mavzuga yanada aniqlik kirita oladi. Olim fikriga ko‘ra, “yagona ta’sir” vositasi hisoblanuvchi minimal hikoyalarning uchta asosiy xususiyati mavjud. Birinchidan, hikoya o‘quvchi ongida yagona tuyg‘u uyg‘otishi kerak, ikkinchidan, bir o‘tirishda o‘qib bitirsa bo‘ladigan hajmda bo‘lishi lozim, uchinchidan, hikoyada so‘zlar tanlovi shu darajada siqiq va o‘rinli bo‘lishi kerakki, hikoyadan bir so‘zning olinishi ham hikoya mazmuniga putur yetkazadi. [1, s.221] Turk olimlaridan R.Korkmaz minimal hikoyalarning asosiy xususiyati sifatida, hikoya so‘ngida kitobxonni shok holatiga solish, uni o‘ylantirishini ham ko‘rsatadi. [8, s.31]

**Natijalar va muhokama.** Farid Edgu minimal hikoyalarda turk tilining imkoniyatlarini kengaytirish bilan birga turk millatining o'ziga xos milliy qarashlarini, ijtimoiy muammolarini qisqa va lo'nda til vositasida ifodalashga erishadi. Yozuvchining so'z tejamkorligi, fikrlar yangiligi va nuqtadonlik mahorati minimal hikoyalari badiiy tilida namayon bo'ladi.

*Necha kishilik og'a-inilar edik bilmayman.*

*Kenjalari men edim va sanashni bilmasdim.*

*Sanashni o'rganganimda esa tarqalib ketgandik.*

*(“ Kaç kardeşlik bilmiyorum.*

*En küçükleri bendim ve henüz saymayı bilmiyordum*

*Öğrendiğimde ise dağılmıştık”)* [4,s.26]

Adib qalamiga mansub “Og'a-inilar” minimal hikoyasi jami uch qator va o'n to'rt so'zdan tashkil topgan bo'lib, hikoyada bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri aka-ukalik, oila va uning qadriyatlarini, insonlar orasida tobora yo'qolib borayotgan mehr-oqibat tuyg'ulari mohirona yoritiladi. Monolog shakliga ega “Og'a-inilar” hikoyasida katta oilaning kichkina a'zosining ulg'ayib, aqlini taniguniga qadar unga dalda bo'luvchi va yo'l ko'rsatuvchi kattalarning tarqalib, jipsligini yo'qotishi masalasi yoritiladi.

Farid Edgu hikoyalarida oila va oilaviy qadriyatlarga keng e'tibor berilgan bo'lib, ijodining dastlabki yillarida yozuvchi oilaviy masalalarni farzand pozitsiyasidan keng yoritgan bo'lsa, umrining oxiriga kelib ota nuqtai nazaridan ochib beradi. Har davrning o'ziga xos muammo va qiyinchiliklarini sodda til bilan ifodalaydi.

Yozuvchining dolzarb va hayotiy ahamiyatga ega chuqur masalalarni yoritishda badiiy laqmalik, so'z isrofidan qochishi aslida yozuvchi ijod jarayonidagi rejalashtirilgan nutqining nechog'lik puxta shakllantira olganidan dalolat beradi. Minimal hikoyalarda janrning barcha komponentlaridan o'rinli foydalanishi

ko‘rinadi. Adib qalamiga mansub ko‘plab minimal hikoyalarda asar nomining badiiy asar g‘oyasini yetkazishda asosiy mezon bo‘lib xizmat qilgani ko‘rinadi.

*“Yodimda, go‘zal, charog‘on kun edi.*

*Qir sayrimiz paytida o‘sha bahaybat ilon otamni chaqib o‘ldirdi.*

*Shu tariqa qabila boshlig‘i men bo‘ldim.”*

*(“Hatirlarım, güzel, güneşli bir gündü.*

*Kır gezintimiz sırasında, o koca yılan babamı sokup öldürdü. Böylece kabilenin başına ben geçtim.”) [6, s.131]*

“Ana dengiz, Mariya” hikoyalar to‘plamidan joy olgan “Ilon” (“Yılan”) minimal hikoyasida asar nomi hikoya g‘oyasining dastlabki kaliti hisoblanadi. Bir qarashda tushunish murakkab bo‘lgan hikoyada ilon obrazi intermatn sifatida leytmotiv vazifasini bajaradi. Turk xalq og‘zaki ijodida, turk maqol va iboralarida “bag‘rida ilon boqish” (“koynunda yılan beslemek”- noqobil farzand), “ilon hikoyasi” (“yılan hikayesi” oxiri bo‘lmagan hikoya) ma’nolarini bildirib, hikoyada o‘quvchi e’tiborini padarkush qahramonga qaratadi.

Yozuvchi tomonidan asar g‘oyasi birinchi shaxs qahramon roviy tomonidan yoritilib, uning o‘tmish bilan bog‘liq xotiralari orqali gavdalanadi. Hikoyaning birinchi va ikkinchi qatorlarida bosh qahramonning tuyg‘ularini aks ettirish bilan birga tanganing ikkinchi tomonini ham ko‘rsatadi. Satr boshidagi “yodimda, go‘zal va quyoshli kun edi.” Tasvirdagi “quyoshli kun” so‘z birikmasi ilon ramzining folklordagi semantik ma’no qatlami orqali o‘quvchi fikrlariga o‘z ta’siri ostiga oladi. Bugungi kunda zamonaviy turkiy tillardagi salbiy ma’noga ega bo‘lgan “ilon” ramzi turk folklorida yangilanish, umrboqiylik, donolik va kuch ma’nolarini ifodalaydi. Odatda quyosh bilan birga tasvirlangan ilon ramzi Hindiston va Mesopatamiya afsonalarida shifo, yangi hayot ma’nolarini bildirs, po‘st tashlagani uchun turkiy xalqlar mifologiyasida barhayotlik ramzi o‘loroq bilinadi. [2, s.144].

Ilon obrazining falsafiy ma'nosida tahlilida zamonaviy turk tilidagi ilon so'zining semantik ma'no qatlami bilan birga adib ijodidagi oilaviy munosabatlarning o'rniga e'tibor berish muhim. Adib ijodidagi "Buzg'in" ("Bozgun"), "Qochqinlar" ("Kaçkınlar") uzun hikoyalardan tashkil topgan to'plamlarida qahramonlarning ota-onasiga, katta yosh vakillariga nisbatan eskilik sarqitlariga ko'r-ko'rona ishonuvchi, jamiyatning illatlariga bog'lanib qolgan va yangi fikrlashga, yangilikka qarshi bo'lgan kishilar sifatida tasvirlanadi. Yozuvchi ijodida keng yoritilgan avlodlar o'rtasidagi kurash va kelishmovchilikka asoslangan motivlar yordamida yozuvchi "Ilon" obrazi orqali qaysidir ma'noda padarkushlik g'oyasi bilan birga avlodlar o'rtasidagi ziddiyatli masalalar ko'tarilganligi haqida dalolat beradi. Dastlabki satrlardagi "charog'on kun" birikmasi, ilonning ilm, donolik kabi xususiyatlariga ishora qilib, padarkush farzandning ijobiy xislatlariga ishora qiladi.

Qahramon ilonga nisbatan ishlatilgan "katta" sifatini qo'llashi, hamda bir hamlada uning otasini jonini olishi unda ilonga nisbatan havas va ijobiy ta'sirlanish tuyg'ulari borligini ko'rsatadi. Hikoyaning so'ngi satrlarida "shu tariqa qabila boshlig'i men bo'ldim" jumlasidagi men olmoshi qahramondagi xudbinlik va kibr tuyg'ularini ham ifodalaydi. Hikoya g'oyasi jihatida esa "qabila boshlig'i men bo'ldim" so'zlari orqali hikoyada "ilon" obrazi orqali hayot doimiy ravishda davom etishi, otaning o'limi bilan hayot to'xtamasligi va uning yangilanishi ifodalandi.

"Ilon" hikoyasida bo'lgani kabi yozuvchi hikoyalaridagi siqqlik har bir so'z va obrazni ko'p ma'noligi orqali ta'minlanadi. Hikoyalarda keng uchraydigan obrazlardan biri it obrazi hisoblanadi.

"Yodingdami, uni ilk bor uchratganimizda juda achingandik.

O'zi achinadigan ahvolda edi-da.

Dosh berolmay uyimizga olib keldik.

Boshqa nima ham qila olardik?

Bilmasam, balki ko'priktan soyga tashlab yuborsak bo'lardi.

Nima ham bo‘lardi ? Itlar suzishni biladi.

Faqat o‘shanda u bizni kuzatolmas, ostonamizdan hatlab o‘tmas va hali bir hafta bo‘lmay turib, o‘z-o‘zidan sening to‘pig‘ingdan tishlab olmagan bo‘lardi.

Qara, seni yolg‘onchiga chiqarish uchun tizzamning tagida g‘ujanak bo‘lib yotib olib, qo‘llarimni yalayapti.

Siz odam bo‘lmaysiz, - dedim. - Barcha itlar singari...” [6, s.40]

(“Hatırlıyor musun, onu ilk kez gördüğümüzde çok acımiştık. Acınmayacak gibi değildi ki.

Dayanamayıp evimize getirdik.

Başka ne yapabilirdik?

Bilmiyorum. Belki köprünün üzerinden ırmağa atabilirdik.

Ne değışirdi ki? Köpekler yüzme bilir.

Ama o zaman, bizi izleyemez, kapımızdan içeri süzülemez ve geldiğinin haftasında, durup dururken topuğundan ısıramazdı seni. Ama şimdi, seni yalanlamak için, dizlerimin dibine çöreklenmiş, ellerimi yalıyor.

Sizler adam olmazsınız, dedim. Tüm köpekler gibi...”)

“Do ovozi” (“Do Sesi”) to‘plamidan joy olgan “It” (“Köpek”) nomli hikoyada ham it obrazining an‘anaviy ma‘no doirasidan tashqarida ifodalanishi ko‘riladi. Dialog shaklida qurilgan “It” hikoyasida xronologik ketma-ketlik o‘tmishdan boshlanadi. Ikki qahramon dialogida ayanchli holatda bo‘lgan bosh qahramon it obrazi o‘ta ayanchli, yordamga muhtoj holatda ekanligi, shu bilan birga unga yordam berishiga qaramay xiyonatga uchraganligi qahramonlar nutqida ifodalanadi.

Odatda sadoqat ramzi hisoblangan it obrazi, hikoyada salbiy jihatidan yoritiladi. Hikoya boshida muhtoj zararsiz it obrazi hikoyaning yettinchi satriga kelib itning xiyonati dunyo mifologiyasi orqali yoritadi. Homerning “Iliada”



dostonida aks ettirilgan “Axilles to‘pig‘i” [7, b. 456] iborasi matnga ko‘chiriladi. Hikoyadagi it obrazi ham anu shunday, asar qahramonlariga yolg‘ondan yaqinlashib ularning eng nozik nuqtasiga zarba beradi.

Parchada qo‘llanilgan “tizzasining tagida g‘ujanak bo‘lib” (“dizinin dibinde çöreklenmiş”) iborasida biron bir kishining doim yonida bo‘lish bilan bir qatorda itoatkorlik ma‘nolari mavjud. Iboraning davomida itoatkorlikka tamoman zid ma‘no ifodalovchi “çöreklenmiş” ifodasi yordamida so‘z o‘yini san‘ati qo‘llaniladi. Turk tili izohli lug‘atida “çöreklenmiş” g‘ujanak bo‘lib yotish, ilonlarga nisbatan qo‘llaniluvchi qolib shaklidagi ibora bo‘lib, ko‘chma ma‘noda (varvarizm) biron kimsani aldash, tovlamachilik qilish ma‘nolarini bildiradi. Jumla so‘ngidagi “yalamoq” fe‘lining ko‘chma ma‘nodagi ikkiyuzlamachilik, tasniflari orqali it obrazi to‘liq yoritiladi. Hikoyada ibora atayin o‘zgartirib berilishi orqali esa it obrazining salbiy tomoni ochib beriladi. Hikoyaning so‘nggi jumlasini “odam bo‘lmaysiz”, “barcha itlar kabi” so‘zlari bilan yakunlanadi. “Barcha itlar kabi” iborasi hikoyada ko‘tarilgan asl g‘oyani mazmuman kuchaytiradi.

Hikoya matni o‘quvchini o‘ylantirishga, ibrat olishga qaratilgan bo‘lib, hikoya ohangidagi bir maromlik, o‘ylantiruvchi ibratli so‘zlar orqali o‘quvchini fikr yuritishga chorlaydi.

So‘z ramzlarning noodatiy qo‘llanilishi bilan bir qatorda, tilda mavjud norma va an‘anaviy ma‘no doirasini buzmay ifodalanishi ham Farid Edgu minimal hikoyalarida kuzatiladi. Adib ijodiga mansub “Do ovozi” (“Do Sesi” to‘plamidan joy olgan “Chorasiz” (“Çaresiz”) hikoyasida it obrazi ijobiy ma‘no doirasi orqali asar g‘oyasini yoritish vazifasini o‘taydi.

*“Oxiri bir itni asrab oldi.” (“Sonunda bir köpeği evlat edindi.”). [6, s.77]* Muallif roviy nutqi bilan rivoyalangan minimal hikoya jami bir jumla, besh so‘zdan tashkil topgan. Matndagi hajman siqqlik uning mazmuniy teranligiga aks etmagan bo‘lib, hikoyada mazmun doirasi so‘zlarning assotsiativ ma‘no doiralari orqali ta‘minlanadi. Hikoyaning semiotik kaliti vazifasi sifatida berilgan “chorasiz” nomi ayni damda hikoya bosh qahramoniga berilgan nom va uning ruhiy holatining

umimlashtiruvchi nomi bo‘lib, bir so‘z bilan hikoya haqida ma’lumot beradi. Bir jumladan tashkil topgan hikoyada garchi bosh qahramonga alohida o‘rin berilmasa ham, uning hayotiy fojeasi muallif nutqida to‘g‘ri va aniq tanlangan so‘zlar orqali to‘liq yetkaziladi. Hikoyaning boshida e’tiborni tortuvchi so‘z “so‘ngida” so‘zi bilan bosh qahramonning hikoya xotimasidagi natijaga olib kelgan mashaqqatli yo‘li va urinishlari aks etadi. Hikoyaning xotima qismi matnning semiotik nuqtasi bo‘lib, asar g‘oyasining kulminatsion cho‘qqisi hisoblanadi. Qahramonning bir qancha muvafaqqiyatsiz urinishlardan so‘ng hikoya nomida belgilanganidek chorasizligida va’fo, sadoqat va sevgi ramzi bo‘lgan itni farzandi o‘rnida ko‘rib asrab oladi. It obrazi an’anaviy semantik ma’nosi doirasida berilgan hikoyada “asrab oldi” (“evlat edindi”) iborasi orqali qahramonning itni boqib olishdan asl maqsadini ifodalaydi.

“It” va “Chorasiz” minimal hikoyalarida birgina it obrazi orqali yozuvchi ijodida insonlar orasidagi vafosizlik, xoinlik, sotqinlik kabi tushunchalarni aks ettirishda an’anaviy va no’anaviy metaforik o‘xshatishlar orqali erishiladi.

**Xulosa.** Badiiy asar qiymati unda ko‘tarilgan mavzu ko‘lami kengligi va barhayotligi bilan belgilanadi. Yozuvchi mahorati boqiy mavzularni o‘ziga xos uslub va badiiy til orqali yotirishida ko‘rinadi. Farid Edgu hikoyalari markazida inson qadri, uning boy ruhiy dunyosi milliy va umumbashariy qadriyatlar doirasida yoritiladi. Yozuvchi falsafiy ahamiyatga ega keng ko‘lamli mavzularni yoritishda badiiy laqmalikka yo‘l qo‘ymaydi. Natijada adib hikoyalarida o‘ziga xos ramziy, semantik ma’no qatlami keng adibga xos badiiy tili shakllanadi. Ushbu til tahlili turk tili badiiy imkoniyatlarini kengaytirish bilan bir qatorda adib hikoyalarini struktural tahlilida keng imkoniyatlar yaratadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Allan E. Bütün Şiirleri ve Kompozisyon Felsefesi. – Ankara: Hece Yayınları, 2021.

2. Armutak A. Doğu ve Batı Mitolojilerinde Hayvan Motifi.// İstanbul Üniversitesi, Veterinerlik Fk. Dergisi. – 2014. 30 (2).
3. Demir S. Ferit Edgü'nün Garip Aile Küçürek Öyküsünün Gösterge Bilimsel Yöntemlerle Çözülmesi.// ASOS Journal. ISSN 2148-2489. – 2015.
4. Edgü F. Bin Bir Hece. – İstanbul. Remzi Kitabevi, 1991.
5. Edgü F. İşte Deniz, Mariya. – İstanbul: Sel Yayıncılık, 2010.
6. Edgü F. Leş. – İstanbul: Sel Yayıncılık, 2010.
7. Ҳомер. Илиада (Русчадан Қодир Мирмухамедов таржимаси). – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1988.
8. Kencayeva P. Hürşit Dostmuhammad ve Ferit Edgü Hikayelerinde Müşterek Karakterler Dünyası.// Anadolu Kültürel Araştırmalar Dergisi (ANKAD) Cilt 3. - 2019. - 2 sayı.
9. Korkmaz R. Türk Edebiyatında Yeni Bir Tür Küçürek Öykü. – Ankara: Grafiker, 2011.
10. Расулов А. Бадиийлик – безавол янгилик: Илмий-адабий мақолалар, талқинлар, этюдлар. – Т.: «Шарқ», 2007.
11. Yıldırım E. Modern Türk'ün Hikayesi. (Türk Modernleşme Bağlamında Türk Hikayesi). – Ankara. Cantekin Matbaası, 2011.